



XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBİYALASH YO'LLARI

Sadat Husnia

Xalqaro Nordik universiteti
2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15089099>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 20-Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 26-Mart 2025 yil

KEY WORDS

Xalq pedagogikasi, mehnatsevarlik, tarbiya, ta'lim, qadriyatlar, o'quvchilar, pedagogik metodlar, milliy tarbiya.

ABSTRACT

ushbu maqolada xalq pedagogikasi vositalari orqali o'quvchilarda mehnatsevarlikni shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya usullari asosida bolalarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil va amaliy tajribalarga asoslangan metodlar qo'llanilib, xalq pedagogikasining zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tarbiya usullari va mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuvlar o'quvchilarning mas'uliyat, fidoyilik va ijodkorlik kabi fazilatlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Yosh avlodning mehnatsevar, mas'uliyatli va fidoyi inson bo'lib shakllanishi bugungi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Ammo zamonaviy texnologiyalar ta'siri, qulayliklarga o'rganish va ba'zan noto'g'ri tarbiya natijasida o'quvchilar orasida mehnatga bo'lgan munosabat sustlashib borayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli, xalq pedagogikasining boy tajribasidan foydalanib, o'quvchilarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish masalasi alohida e'tibor talab qiladi.

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [1].

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas [2]

Xalq pedagogikasi o'zining boy tarbiyaviy merosiga ega bo'lib, o'quvchilarni har tomonlama shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodi – afsonalar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo'shiqlar orqali tarbiyaviy qadriyatlarni yetkazib kelgan. Milliy urf-odatlar, marosimlar, xalq o'yinlari va hunarmandchilik esa yosh avlodning axloqiy, jismoniy hamda estetik tarbiyasiga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqa, tasviriy san'at, me'morchilik va raqs san'ati orqali estetik did ham shakllanadi. Shu bois, xalq pedagogikasi mehnatsevar, vatanparvar va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda bebaho manba

hisoblanadi.

Shuningdek xalq pedagogikasi yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim omil bo'lib, uning tarbiyaviy imkoniyatlari shaxs kamolotini shakllantirish jarayonida samarali qo'llaniladi. Xalq maqollari, milliy urf-odatlar va amaliy san'at an'analari orqali o'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy hamda ijodiy tafakkur shakllanadi, ularning mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ezgulik kabi qadriyatlarni anglash va kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi

Xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba hisoblanib, uning tarbiyaviy ta'siri asosan axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish ularning ruhiy olamini boyitish, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqollar, dostonlar, qo'shiqlar va ertaklar orqali o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini mustahkamlash, ularning ma'naviy kamolotiga hissa qo'shishadi [3].

Xalq pedagogikasi ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va madaniy merosni yosh avlodga singdirishga alohida e'tibor qaratadi. Paulo Freire va Jon Dyui tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchilarning o'quvchilarga ularning milliy madaniy merosini chuqur anglash va qadrlashga yordam berishi, shuningdek, tajribaviy o'rganish usullaridan foydalanishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy marosimlar va urf-odatlar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinganda, o'quvchilarda milliy madaniyatga hurmat, o'z ildizlarini anglash va qadriyatlarni amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Seymour ta'kidlaganidek, bunday jarayonlar o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4].

Milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni shakllanishida xalq pedagogikasi milliy muhim omil hisoblanadi. Biroq, o'quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida faqat og'zaki ijod bilan cheklanib qolmasdan, ularni mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash ham pedagogikaning muhim jihatlari sanaladi.

Bu borada rus olimi Vasiliy Sukhomlinskiy (1979) tarbiyada mehnatning ahamiyatini alohida ta'kidlab, uni shaxsiy kamolot va ijtimoiy foydalilik omili sifatida ko'rsatgan. Uning fikricha, bolalar mehnat faoliyatida ishtirok etgan sari ularda hayotga tayyorgarlik, intizom va mas'uliyat hissi kuchayadi. Shu bilan birga, mehnatsevarlik tarbiyasida xalq pedagogikasi vositalari ham samarali qo'llanilishi mumkin [5].

Xalq pedagogikasi nafaqat milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni shakllantirishda, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. U mehnatga, iqtisodiy mas'uliyatga va milliy madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan vositalarga ega bo'lib, avlodlar davomida shakllangan tajriba va bilimlarni o'zida mujassam etadi. Xalq pedagogikasi og'zaki ijodiy meros orqali shaxsning axloqiy tarbiyasini, jamiyatdagi o'rnini va ijtimoiy muhitga moslashuvini belgilaydi.

Konstantin Ushinskiy (1948) xalq pedagogikasining beqiyos tarbiyaviy ta'sirini ta'kidlab, "Xalqning o'zi yaratgan va milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim hech qanday abstrakt g'oyalarga tayanadigan eng mukammal tizimlar bilan ham solishtirib bo'lmaydigan tarbiyaviy kuchga ega" deya yozgan (p. 62). Uning fikricha, ta'lim hayotiy tajribaga

asoslanishi, insonlarni qiyinchiliklarni yengishga, matonat va chidamlilikni rivojlantirishga o'rgatishi lozim [6].

Munozara.

Izlanishlar natijasida xalq pedagogikasining yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynashi, xususan, oilaning tarbiya jarayonidagi o'rni zo'ravonlikka moyillikning oldini olish, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aniqlandi. An'anaviy tarbiya usullari qo'llanilgan oilalarda yoshlarning axloqiy me'yorlarga rioya qilish darajasi yuqoriligi kuzatildi.

Shuningdek, maktab o'qituvchilarining xalq pedagogikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar xalq og'zaki ijodi, milliy an'analar va madaniy meros elementlarini ta'lim jarayoniga kengroq tatbiq etish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

Xulosa.

Xalq pedagogikasi yosh avlod tarbiyasida muhim omil bo'lib, milliy qadriyatlarni singdirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq pedagogikasi nafaqat an'anaviy tarbiya vositasi, balki zamonaviy ta'lim jarayonida ham samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan boy tajriba manbaidir.

Oila tarbiyasida xalq pedagogikasining qo'llanilishi yoshlarning ijtimoiy mas'uliyat, mehnatsevarlik va axloqiy qadriyatlarni anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va milliy an'analarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularning milliy madaniyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'lishi kutiladi.

Shu bois, xalq pedagogikasi tamoyillarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'lim tizimining mazmunini boyitish, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga ko'maklashuvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 38.
2. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Karimova N.S. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda, xalq og'zaki ijodidan foydalanish" Academic Research in Educational Sciences 2023-yil, 4-jild, 1-son. ISSN: 2181-1385, 465-468b
4. Seymour, D. Learning for life in the 21st century: Sociocultural perspectives on the future of education. Blackwell Publishing. (2000).
5. Сухомлинский, В. А. (1979). Избранные педагогические сочинения. В 3 томах. (Том 1). Педагогика.
6. Ekhaeva R.M. 2021. Folk Pedagogy to Promote Personality Development. In SCTCMG 2021: International Scientific Conference "Social and Cultural Transformations in the Context of Modern Globalism", European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2021.11.67>.
7. Haytbayeva S. TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUVNI JORIY ETISHNING

PEDAGOGIK JIHATLARI //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.

8. Raximberganovna H. S. SECONDARY SCHOOLS TO INTRODUCE A COMPETENCY APPROACH TO BIOLOGY EDUCATION SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS //Confrencea. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 174-178.

9. 9. Musayeva, S. I. (2023). PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF CADETS'INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE THROUGH ENGLISH LANGUAGE TEACHING. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(22), 46-50.

10. 10. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019, 139.

11. 11. Habibullayevna, V. N., & Mirshadmonovna, H. Z. (2019). Intellectual growth and development of the younger generation is a demand of the time. European science, (4 (46)), 54-57.

12. 12. Islamova, F. (2024). AMALIY SAN'AT ORQALI O 'SPIRIN YOSHDAGI O'G'IL BOLALALARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH-KELAJAK TARAQQIYOTI SIFATIDA. Nordic_Press, 3(0003).

13. 13. Habibullayevna, V. N., & Mirshadmonovna, H. Z. (2019). Intellectual growth and development of the younger generation is a demand of the time. European science, (4 (46)), 54-57.

https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cites=1395798573640549257&as_sdt=5

INNOVATIVE
ACADEMY